

## DAVLAT XARIDLARI SOXASIDAGI KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLIISH CHORALARI (TEZIS)

Sodiqov Shahzod Bobosherovich

Telefon: +99894 551 23 32 shahzodsodiqov723@gmail.com

### Anotatsiya

Barchamizga ma'lumki, tarixan korrupsiya illati mamlakatlar rivojlanishi kuchli taraqqiy etishiga salbiy ta'sir o'tkazib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ham ta'kidlab o'tganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"<sup>1</sup>. Haqiqatdan ham, korrupsiyaviy jinoyatlar davlatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shuningdek xalqning davlat organlariga nisbatan ishonchini susaytiradi<sup>2</sup>.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, hokimiyatni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, mansabdorlik jinoyatlari,

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga yetarli darajada etibor berilmasdan, asosan, davlatning bir qator asosiy shartnomalarga qo'shilishi bilan karakterlanib, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi tajribasini o'rganish, ularni amaliyotga tadqiq qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonuniy tartibga solish masalalariga oid zarur chora-tadbirlar ko'rilmadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi. Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis)

<sup>2</sup> Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стратегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21. (Strategic directions for combating corruption in the Russian Federation. Avdeev V.A., Avdeeva O.A.)



ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini taqozo qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyalar belgilab berildi. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardan oq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qildi.

Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”**gi 419-sonli qonun qabul qilindi. Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati tartibga solinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asosi yaratildi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foidalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir<sup>3</sup>. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat xaridlari sohasida ochiqlikni ta'minlash, bu jarayonda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. Xususan, Agentlikka kelib tushgan murojaatlar, ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo'layotgan davlat xaridlari va Agentlik tashabbusi bilan o'tkazilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra, bir qator davlat idoralari tomonidan o'tkazilgan davlat xaridlarida qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlanib, tegishli vazirlik hamda tashkilotlarga davlat xaridlarini bekor qilish va qonun buzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritildi.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008/> (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption)



Jumladan, Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi Davlat unitar korxonasi buyurtmachiligida qiymati 3,7 mlrd. so'mlik "kompyuter tizimiga maxsus uskunalar" olish uchun berilgan e'lon yuzasidan o'tkazilgan tender jarayonida affillanganlik holatiga yo'l qo'yilganligi aniqlanib, mazkur tenderni bekor qilish yuzasidan Xalq ta'limi vazirligiga taqdimnoma kiritildi.

Shuningdek, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun talablarining buzilishi holati Q.S.Zoirov nomidagi O'zbekiston Sog'liqni saqlash muzeyining ma'muriy binosini (765 mln. so'mlik) joriy ta'mirlash bo'yicha o'tkazilgan davlat xaridlari jarayonida ham yo'l qo'yilganligi aniqlanib, Sog'liqni saqlash vazirligiga mazkur xaridlarni bekor qilish yuzasidan taqdimnoma kiritildi. Bundan tashqari, Agentlik tomonidan Sog'liqni saqlash tizimidagi budjet buyurtmachilari tomonidan maxsus axborot portalida joylashtirilgan outsorsing xizmatlarini tashkil etishga oid e'lonlarning «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonunga muvofiqligi masofaviy monitoring tartibida va hududlarga chiqqan holda o'rganilib, tahlil qilindi. O'rganishda Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasidan olingan ma'lumotlar hamda «dxarid.uz» maxsus axborot portalida joylashtirilgan ma'lumotlar tahlil qilinganida, sog'liqni saqlash tizimida outsorsing xizmatlarini tashkil etishda budjet buyurtmachilari (tibbiyot muassasalari) tomonidan manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltiruvchi korrupsiyaviy omillarning kelib chiqishiga shart-sharoit yaratilayotganligi aniqlanib, Sog'liqni saqlash va Moliya vazirligiga bu kabi qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish yuzasidan taqdimnomalar kiritildi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari, ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini tahlil qilar ekanmiz, xorijiy mamlakatlarda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun turli darajadagi jazolar belgilangan. Ayrim mamlakatlarda jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima jazosidan ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha, ayrimlarida esa ozodlikdan mahrum qilish jazosidan o'lim jazosigacha hukm qilinishi belgilangan. Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan rivojlangan davlatlarning deyarli hammasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq ro'yxati belgilangan, bo'lib ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ularni sodir etgan shaxslarning egallab turgan lavozimi, jamiyatdagi o'rniga qarab jazo tayinlanadi va bu jazoning adolatliligi, odilligi kabi prinsiplarning to'g'ri qo'llanishiga, jamiyatda korrupsiyaning eng past darajaga tushirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari korrupsiyani oldini olish uchun ko'plab xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslarning mol-mulkini deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazorati, davlat



tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibda amalga oshirish tizimi yo'lga qoyilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

#### 1.1. Rahbariy adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

[https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat- mirziyeevning-oliy25-01-2020](https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy25-01-2020). (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);

2. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стратегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21. (Strategic directions for combating corruption in the Russian Federation. Avdeev V.A., Avdeeva O.A.)

#### 1.2. Normativ huquqiy hujjatlar:

2.1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> .

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387> / Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-son.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-4875784> Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 30.06.2020y., 6013-son.

### Elektron hujjatlar:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. [www.onlinezakon.ru](http://www.onlinezakon.ru).
3. [www.norma.uz](http://www.norma.uz).

